



THE IMPORTANCE OF COMPLIANCE CONTROL SYSTEMS IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION AND THEIR ROLE IN PREVENTING CORRUPTION

Rahmatilloev Husniddin Ulug'bek o'g'li

Master's student, Bukhara University of Innovations

Email: husniddin.rahmatilloev@mail.ru

Phone: +998 93 711 13 21

Jurabayev Xayrulla Saydullayevich

Master's student, Bukhara University of Innovations

Email: xayrulla.jurabayev@mail.ru

Phone: +998 90 940 80 80

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18359263>

ARTICLE INFO

Received: 15th January 2026

Accepted: 23rd January 2026

Online: 24th January 2026

KEYWORDS

Digital transformation, compliance control, corruption, conflict of interest, integration, "E-comcontrol" control platform, Big Data and Artificial Intelligence (AI).

ABSTRACT

This article elucidates the concepts of compliance control and corruption, exploring the essence, primary objectives, and structural elements of a compliance control system, as well as its effectiveness in combating corruption. Particular emphasis is placed on ensuring transparency and enhancing management efficiency within public and private sector organizations through the implementation of robust compliance control mechanisms.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA KOMPLAENS NAZORAT TIZIMLARINING AHAMIYATI VA KORRUPSIYANI OLDINI OLISHDAGI O'RNI

Rahmatilloev Husniddin Ulug'bek o'g'li

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

husniddin.rahmatilloev@mail.ru +998937111321

Jurabayev Xayrulla Saydullayevich

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

xayrulla.jurabayev@mail.ru +998909408080

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18359263>

ARTICLE INFO

Received: 15th January 2026

Accepted: 23rd January 2026

Online: 24th January 2026

KEYWORDS

Raqamli transformatsiya, komplaens nazorat, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, integratsiya, "E-comcontrol" nazorat platformasi, Big Data (katta

ABSTRACT

Ushbu maqolada komplaens nazorat va korrupsiya tushunchasi, komplaens nazorat tizimining mazmun-mohiyati, asosiy vazifalari, tarkibiy elementlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashishdagi samaradorligi yoritib beriladi. Davlat va xususiy sektor tashkilotlarida komplaens nazorat tizimini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan hamda sohani



ma'lumotlar) va Sun'iy rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar intellekt (AI). ilgari surilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2026-yilni sohada "favqulodda holat" yili deb e'lon qilar ekan, ushbu illatni islohotlar yo'lidagi eng asosiy to'siq sifatida tavsifladi. Xususan, barcha idoralarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens) tizimi uchun mas'ul rahbar lavozimlarining joriy etilishi va ularning bevosita Prezident oldida hisobdorligi sohada yangi nazorat vertikalini yaratdi ^[1].

Ushbu siyosiy iroda raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashgan holda, nafaqat jazolash, balki tizimli proaktiv choralarni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda raqamli muhitda shaffoflikni ta'minlash va inson omilini kamaytirishda komplaens nazorat tizimlarining o'rni beqiyosdir. Mazkur jarayonlar davlat va xususiy sektor integratsiyasini chuqurlashtirish bilan birga, manfaatlar to'qnashuvini avtomatik aniqlash imkonini beruvchi innovatsion platformalarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

ASOSIY QISM

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylandi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari natijasida bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. 1994-yilning 31-dekabrida «Finansial Times» gazetasi 1995-yilni «Korrupsiya yili» deb e'lon qilganligi ko'pchilikka ma'lum. Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa korrupsiyaga oid savodxonlikni tashviqot qilish uchun 9-dekabrni «Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni» deb ta'sis etdi va ushbu kun 2004 yildan boshlab nishonlanib kelinadi.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o'zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo'lgan kishilar sodir etadilar.^[2]

Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati tizimining vazifalari:

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga nisbatan aniq talablarni belgilash;

xavflarni muntazam aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish;

barcha xodimlarni antikorrupsiya siyosatlari bo'yicha doimiy o'qitish;



korruptsiya holatlari paydo bo'lishining oldini olish va tashkilotda shaffoflik madaniyatini shakllantirish;

antikorrupsiya tartib-qoidalariga rioya etilishini doimiy tekshirish;

xodimlarning xavfsiz va anonim tarzda qoidabuzarliklar haqida xabar berishi uchun maxfiy kanallar yaratish;

shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlashga qaratilgan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

xabarlar yoki audit natijalari bo'yicha tezkor va mustaqil ichki tekshiruvlarni o'tkazish.

Korrupsiyaning hozirgi zamondagi yangilangan va yashirin ko'rinishlari.

Korrupsiya bugungi kunda faqat "qo'ldan-qo'lga pul berish" shaklida emas, balki ancha murakkab, yashirin va texnologik ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot bu illatning yangi usullari paydo bo'lishiga zamin yaratdi. An'anaviy korrupsiya va yangi turdagi korrupsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq va korrupsiyaga qarshi kurash vaziyati og'ir va murakkabligicha qolmoqda. Korrupsiyaning yangi turlari ko'proq "korrupsiyaning kuchayishi" toifasiga kiradi, bu esa an'anaviy korrupsiya shakllarining evolyutsiyasi va yangilanishini anglatadi. Quyida korrupsiyaning hozirgi zamondagi yangilangan va yashirin ko'rinishlari:

- a) Korrupsiya jinoyatini sodir etayotganlar bevosita pul olmaydi. Ular "ishonchli vakillar" yoki "vositachilar" orqali ish bitiradi. Bu esa mulk huquqi va jinoiy harakat o'rtasidagi bog'liqlikni uzib, aybdorni aniqlashni qiyinlashtiradi.
- b) Noqonuniy maqsadlar qonuniy shakllar (masalan, kriptovalyuta, blokcheyn, murakkab moliyaviy vositalar) orqasida yashiriladi. Moliyaviy korrupsiyada bitimlar ko'p bosqichli va professional darajada amalga oshiriladi.
- c) Daromadlarning "opsionlashuvi" (vaqt bo'yicha kechiktirilishi): Pora darhol olinmaydi. Amaldor vakolatidan foydalanib bergan "yordami" evaziga foydani lavozimdan ketganidan keyin yoki boshqa vaqtda oladi. Shuningdek, bitimlar ko'pincha "ichkarida bitkazilib, tashqarida (xorijda) to'lanadi".
- d) "Soya kompaniyalari" va "Soya aksiyadorlar" bu kompaniya amaldorning uzoq qarindoshi yoki boshqa aloqador shaxslar nomiga rasmiylashtiriladi. Amaldor esa o'z vakolatidan foydalanib, ushbu kompaniyaga yirik davlat buyurtmalarini, yer maydonlarini yoki litsenziyalarni olib beradi.
- e) Poralar kriptovalyuta (Bitcoin, USDT), NFT yoki onlayn o'yinlardagi qimmatbaho virtual buyumlar ko'rinishida beriladi. Shuningdek, xorijdagi offshor hududlarda murakkab sug'urta polislari yoki investitsiya fondlari orqali mablag'lar aylanadi.
- f) Amaldor nomiga qimmatbaho sug'urta polisi sotib olish va keyin uni naqd pulga aylantirish.
- g) Davlat organlari tomonidan turli strategiyalar yoki tahlillar tayyorlash uchun e'lon qilinadigan tenderlar ko'pincha "o'zining" konsalting kompaniyalariga beriladi.

Korrupsiyaga qarshi kompleks nazorati xalqaro tajriba misolida.

Turli mamlakatlarda demokratik institutlarning zaifligi va qonun ustuvorligining zaiflashishi davom etayotgan beqarorlik va tashqi bosim fonida yanada kuchaymoqda. Bu korrupsiyaning gullab-yashnashi uchun qulay muhit yaratadi, shuningdek, jamoatchilik



ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanishiga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. **Transparency International tashkilotining** korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 180 ta davlat orasida 121-o'rinni egalladi. 100 balli indeks bo'yicha mamlakat 32 ball to'pladi. Mintaqada eng yaxshi natijani 53 ball bilan Gruziya, Armaniston (47 ball) va Chernogoriya (46 ball), Qozog'iston 40 ko'rsatdi. Yakuniy to'rtlikda Rossiya (22), Ozarbayjon (22), Tojikiston (19) va Turkmaniston (17) bor.

Reytingda ketma-ket **yettinchi yil** Daniya yetakchilik qilmoqda, u eng yuqori ko'rsatkichni ko'rsatmoqda – 90 ball. Undan keyingi o'rinlarni Finlandiya (88 ball) va Singapur (84 ball) egallagan.^[3]

Ushbu uch davlat (*Daniya, Finlandiya, Singapur*)ning korrupsiyaga qarshi kurash komplaens nazorat tizimlari va ularning ishlash mexanizmlari to'g'risida quyida ko'rib chiqiladi.

Daniya "Transparency International" tomonidan e'lon qilinadigan **Korrupsiyani Idrok etish Indeksida (CPI)** birinchi o'rinni (yoki eng yuqori ballni) doimiy ravishda egallab kelayotganining sabablari, asosan, uning kompleks va samarali korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari va yuqori ijtimoiy ishonchga asoslangan madaniyati bilan bog'liq. Davlat xizmatchilari yuqori professionalizmga va qat'iy axloq qoidalariga amal qilishadi. Ommaviy axborot vositalari erkin va faol bo'lib, ular hukumatni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi va korrupsiyaga oid har qanday shubhali holatlarni yuzaga chiqarishda mustaqil faoliyat yuritadi. Daniya mexanizmining asosiy yutug'i – bu korrupsiyaga qarshi kurashishdan ko'ra, uning yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan **profilaktik yondashuv**dir. Yuqorida sanab o'tilgan shaffoflik, ishonch va qat'iy tartib-qoidalar tizimli ravishda poraxo'rlik uchun imkoniyatlarni kamaytiradi. Daniyada ko'plab xizmatlar onlayn va minimal inson aralashuvi bilan amalga oshiriladi. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha qat'iy qoidalar va davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilish majburiyatini to'liq joriy etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina hukumatning ishi emas, balki jamiyatning burchidir. Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni ishdan bo'shatish yoki ta'qib qilishdan himoya qilishni kafolatlovchi maxsus qonunchilikni amaliyotga joriy etilgan. Ta'lim tizimida yoshlarga korrupsiyaning jamiyatga zarari va axloqiy me'yorlarni singdirish orqali ijtimoiy madaniyatni o'zgartirish ongiga singdirilgan.^[4]

Finlandiyada profilaktik yondashuv: korrupsiyaga imkon bermaydigan tizimni, davlat va jamiyat o'rtasida yuqori ishonch mavjudligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish shaffoflikni, korrupsiya haqida xabardorlikni oshirish va turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshirilgan. Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash bir nechta davlat organlari va boshqa tashkilotlarning birgalikdagi orqali amalga oshiriladi. Finlyandiyada Adliya vazirligi bu ishni muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Qonuniylik, moliyaviy boshqaruv va davlat xaridlariga rioya etilishini tekshirish Davlat Audit Kengashi, Oliy Ombudsman, Adliya Kansleri tomonidan nazorat qilinadi. Finlyandiyaning korrupsiyaga qarshi kurashdagi amaldagi diqqat markazida oltita ustuvor yo'nalish yotadi:

1. Rasmiy tuzilmalar va hamkorlikni kuchaytirish.



2. Korrupsiya haqida xabardorlikni oshirish.
3. Shaffoflikni kuchaytirish.
4. Korrupsiya holatlarini fosh etishni rag'batlantirish.
5. Qonunchilikni tekshirish va rivojlantirish.
6. Tadqiqotlarni rag'batlantirish. [5]

Singapur 1965-yilda mustaqillikka erishgan paytda korrupsiya botqog'ida edi. Mamlakat o'ta og'ir iqtisodiy kunlarni boshdan kechirar, jamiyatda qonunsizlik hukm surardi. O'sha vaqtdagi bosh vazir **Li Kuan Yuning** qat'iyati tufayli XX asr oxiriga borib, Singapurda korrupsiya keskin kamaydi va mamlakat rivojlangan davlatga aylandi. Mustaqillikka arafasida Singapurda bir tomondan Britaniya mustamlakachiligi paytida yozilgan qonunlar zaif, ikkinchi tomondan huquqni muhofaza qiluvchi organlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga qodir emas edi. Amaldorlarning aksariyati korrupsiyaga ruju qo'ygandi, aholi ko'pchiligi esa savodsiz bo'lib, o'z huquqlarini himoya qila olmasdi. Korrupsiyaga qarshi kurash boshlagan birinchi hukumat qator muammolarga duch keldi. Qonun ochiqchasiga zaif edi, ko'plab korrupsion jinoyatlar qonun doirasidan chetda qolar, tegishli organlar esa o'z vazifasini samarali ado etish uchun zarur vakolatga ega emasdi.

Singapur avvalo korrupsion harakatlar sodir etish imkoniyatini qisqartirish yo'lidan bordi: amaldorlarning harakatlari tartibga solindi; mustahkam korrupsion aloqalar shakllanmasligi uchun ularning rotatsiyasi yo'lga qo'yildi; byurokratik to'siqlar bartaraf etildi; davlat xizmatchilarining yuqori odob-axloq standartlariga rioya qilishi ustidan kuchli nazorat o'rnatildi.

Korrupsiya holatlarini tergov qilish byurosi (CPIB) ulkan rol o'ynadi. Fuqarolar Byuroga davlat xizmatchilarining harakatlari ustidan shikoyat bilan murojaat qilishi va ziyonni undirib berishni talab qilishi mumkin edi. Korrupsiya holatlari haqida xabar beruvchilarning himoyasi va nomi yashirin qolishi ta'minlandi. Shuningdek, korrupsiya harakatlari uchun jinoiy jazo kuchaytirildi, sud tizimi mustaqilligi ta'minlandi, sudyalarning maoshlari keskin oshirildi va ularning ijtimoiy maqomi mustahkamlandi. Pora berganlik yoki tergovda ishtirok etishdan bo'yin tovlaganlik uchun sezilarli iqtisodiy jazo joriy etildi.

Bojxona xizmati va boshqa ko'plab davlat tashkilotlarida xodimlarni yoppasiga ishdan bo'shatishgacha bo'lgan qattiq choralar ko'rildi. Shu choralar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, davlat xizmatchilarining maoshini oshirish va malakali ma'muriy kadrlarni tayyorlash orqali amalga oshirildi.

Singapurning muvaffaqiyatli modeli va "Komplaens – nazorat" tizimi nafaqat korrupsiya holatlarining oldini olishda, balki davlat boshqaruvida ishonch va axloqiy qadriyatlarni tiklashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. [6]

Zamonaviy xalqaro amaliyotda korrupsiyaga qarshi kurashning **"Ogohlantirish tugmasi"** elementlari keng qo'llanilmoqda. Bu usul raqamli komplaens tizimi orqali xodimga xato yoki shubhali qaror qabul qilish jarayonida real vaqt rejimida etik ogohlantirishlar yuborishni nazarda tutadi. Ya'ni, tizim jazolashdan ko'ra, qonunbuzarlikning oldini olishga (proaktiv choraga) ustuvorlik beradi.

TAKLIFLAR:



sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga mas'ul bo'lgan xodimlarning malakasini oshirish;

korruptsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha belgilangan muddatlarda zarur bilim, malakalarini oshirish choralarini ko'rish;

xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish va aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralarini ko'rish;

korruptsiya haqida xabar bergan shaxslarni ishdan bo'shatish yoki ta'qib qilishdan himoya qilishni kafolatlovchi **maxsus qonunchilikni** amaliyotga joriy etish.

korruptsiyaga qarshi kurash komplaens nazorat tizimida "E-comcontrol" platformasini ishlab chiqish.

"E-comcontrol" platformasi haqida.

Ushbu platforma davlat tashkiloti xodimlariga nisbatan jazolovchi vosita sifatida emas, balki qonunbuzarliklarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan **proaktiv (ogohlantiruvchi)** mexanizm bo'lib, "E-comcontrol" platformasi korruptsiyaga qarshi kurashda kuchli **komplayens va nazorat** vositasi bo'la oladi.

"E-comcontrol" platformasining asosiy maqsadi davlat xizmatchilari bo'yicha yagona, integratsiyalashgan va tahliliy ma'lumotlar bazasi yaratish orqali manfaatlar to'qnashuvi, yashirin daromadlar, noqonuniy mulk, qarindoshlik asosidagi lavozim taqsimoti kabi korruptsion xavflarni avtomatik aniqlashdan iborat.

Ushbu platformada barcha tizimlar **yagona ID** orqali bog'lanadi. **JSHSHIR** –asosiy kalit. Ushbu IDga integratsiya qilinadigan tizimlar: Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligining Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limlar, Soliq qo'mitasi, Davlat kadastrlar palatasi va agentligi, YAIDP, Markaziy bank va Tijorat banklar, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ijtimoiy himoya agentliklarining ma'lumotlar bazasi bilan yagona IDga jamlanadi. Ushbu tizimni nazorat qilish va uning tahlilini olib borish **Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi** tomonidan amalga oshiriladi.

"E-comcontrol" platformasining samaradorligini ta'minlashda **Big Data (katta ma'lumotlar)** va **Sun'iy intellekt (AI)** algoritmlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tizim nafaqat ma'lumotlarni to'playdi, balki quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Xodimlarning moliyaviy xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilib, korruptsion xavf yuzaga kelishidan oldin "**xavf indikatorlari**" tizimi orqali mas'ullarni ogohlantiradi.
- Davlat xaridlari va tender jarayonlarini blokcheyn zanjiriga integratsiya qilish orqali ma'lumotlarni o'zgartirish yoki o'chirish imkoniyatini butunlay yo'q qiladi. Bu "**raqamli iz**" tamoyili asosida javobgarlik muqarrarligini ta'minlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida korruptsiyaga qarshi kurashish an'anaviy usullardan voz kechib, to'liq raqamli va proaktiv (oldini oluvchi) tizimlarga o'tishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda komplaens nazorat



tizimi nafaqat qonunbuzarliklarni aniqlovchi, balki tashkilotning huquqiy va etik madaniyatini shakllantiruvchi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

“E-comcontrol” tizimining amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning shaffoflik poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bu esa 2026-yilda korrupsiyaga qarshi e'lon qilinadigan “favqulodda holat” talablariga va Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan islohotlar strategiyasiga to'la mos kelgan holda, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi mavqeini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/transparency-international/>
3. <https://www.standart.uz/mobile/news/view?id=2123>
4. <https://um.dk/en/-/media/websites/umen/about-us/organisation/anti-corruption-policy/antikorrupcionpolitikdkversion100523.ashx>
5. <https://korrupciontorjunta.fi/lainsaadanto>.
6. <https://www.cpib.gov.sg/>.